



Gulrux DAVRONOVA,

Buxoro davlat universiteti magistranti

Mehrinigor AXMEDOVA,

BuxDU, Ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik kafedrası dotsenti, PhD

PhD D.Xodjayeva taqrizi asosida

INGLIZ SIYOSIY MATNLARIDA EVFEMIZM VA DISFEMIZMLARNING PRAGMATIK TADQIQI

Annotation

Ingliz siyosiy matnlari odatda jurnalistik soha, xususan, gazeta va jurnallarda yoritilib, ular butun ingliz jamiyatining kundalik ma'lumotlar bilan ta'minotchisi hisoblanadi. Siyosiy matnlarning ijtimoiy, siyosiy, pragmatic va psixologik ta'sirini kuchaytirish maqsadida bu matnlarda ishlatiladigan evfemizm va disfemizmlar muhim hisoblanadi. Ushbu maqolada ingliz siyosiy matnlarida ishlatilgan evfemizm va disfemizmlarning gazeta va jurnallardan olingan misollar orqali pragmatik tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ijoiy ta'sir, salbiy bo'yoqdorlik, evfemizm, disfemizm, jargon, argon, sleng, ma'no kengayishi, ma'no torayishi.

ПРАГМАТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ЭВФЕМИЗМОВ И ДИСФЕМИЗМОВ В АНГЛИЙСКИХ ПОЛИТИЧЕСКИХ ТЕКСТАХ

Абстракт. Английские политические тексты обычно освещаются в журналистской сфере, особенно в газетах и журналах, которые являются ежедневными поставщиками информации для всего английского общества. Эвфемизмы и дисфемизмы, используемые в этих текстах, важны для усиления социального, политического, прагматического и психологического воздействия политических текстов. В данной статье представлен прагматический анализ эвфемизмов и дисфемизмов, используемых в английских политических текстах, на примере газет и журналов.

Ключевые слова: Положительное влияние, отрицательная окраска, эвфемизмы, дисфемизмы, жаргон, аргон, сленг, расширение значения, сужение значения.

A PRAGMATIC STUDY OF EUPHEMISMS AND DYSPEMISMS IN ENGLISH POLITICAL TEXTS

Annotation

English political texts are usually covered in the journalistic field, especially in newspapers and magazines, which are the daily information providers of the whole English society. Euphemisms and dysphemisms used in these texts are important in order to strengthen the social, political, pragmatic and psychological impact of political texts. This article presents a pragmatic analysis of euphemisms and dysphemisms used in English political texts through examples from newspapers and magazines.

Key words: Positive influence, negative coloring, euphemism, dysphemism, jargon, argon, slang, expansion of meaning, narrowing of meaning.

Kirish. Siyosiy nutq va siyosat tili tilshunoslarning diqqat markazidagi bo'lib kelgan. Maxsus siyosiy nutq axborot, ijtimoiy va siyosiy matnda foydalanish, turli strategik maqsadlarni yoritish, ommaviy axborot vositalarining asosiy funksional xususiyatlarini ifodalash maqsadida foydalaniladi. Tilning turli siyosiy strategik vositalarini amalga oshirish vositalaridan biri evfemizm va disfemizm kabi birliklardir.

Adabiyotlar tahlili. Hozirgi kunda tilshunoslar evfemizm jarayoni, uning maqsad va vositalari, shakllanish usullari va evfemizmlarni qo'llash sohalarini ancha keng va batafsil o'rganishga harakat qilishmoqda. Xususan, rus tilshunoslari Katsev, Kiprskaya, Krisin, Larin, Moskvın, Ter-Minasova, ingliz olimlaridan Allan, Burridj, Bussman, Kroll, Pelz, o'zbek olimlaridan M.Abuzalova, N.G'aybullayeva kabilarning ilmiy tadqiqotlari bu xodisalarning xususiyatlari va turli sohalarida ishlatilishi haqida to'liq bayon qiladi. Tilshunos olimlar e'tirof etishlaricha, baholovchi assotsiat-siyalar asosida evfemizm jarayoni disfemiya jarayoniga qarama-qarshi qo'yiladi, lekin evfemizmlardan farqli o'laroq, disfemizmlar yetarlicha o'rganilmagan. Larin [6], Kysin [5] kabi olimlar disfemiyanı evfemiya qarama-qarshi hodisa sifatida o'z ishlarida keltirishgan. So'nggi yillarda Bushuyeva kabi olimlar disfemizmlarning paydo bo'lishining ijtimoiy va psixologik asoslarini[1], Pavlova esa ularning siyosiy voqelikni stereotipik idrok etishdagi rolini o'rgangan[9]. Zamonaviy tilshunoslikda evfemiya va disfemiya jarayonlariga bag'ishlangan tadqiqotlar muloqot jarayonida til

va nutq o'rtasidagi o'zaro ta'sir dinamikasini hisobga olishga asoslangan.

Uslub va o'rganish obyekti. Ushbu maqolada biz siyosat tilida qo'llanilayotgan evfemizm va disfemizmlarning mazmun-mohiyatini, ularning tizimli va semantik jihatlarini zamonaviy antropotsentrik yondashuv asosida tahlil qildik. Tadqiqot ob'ekti sifatida Britaniya gazeta matbuotida siyosiy xarakterga ega bo'lgan gazeta xabarlarida qo'llaniladigan evfemizm va disfemizmlarni tanladik. Tadqiqot usuli esa deskriptiv usul bo'lib, bunda kuzatish, umumlashtirish va olingan faktlarni sharhlash, shuningdek, miqdoriy tahlil usulidan ham foydalanildi. Tanlangan birliklar struktural va kontekstual tahlil qilindi.

Tahlillar va natijalar. Disfemiya dennotativ ma'noga salbiy bo'yoqdorlik berish vositasi sifatida tushunilsa, evfemizmlar so'zlovchining tinglovchiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi nominativ birliklardan foydalanishiga qaratilgan bo'ladi.

Ko'pgina ijtimoiy-madaniy va psixolingvistik omillar ta'sirida disfemiyalar samaradorligiga erishiladi. Disfemizm-larning psixologik, sotsiologik, pragmatik va lingvistik jihatlarini tahlil qilsak:

Ijtimoiy moslashuvchanlik, tarixiy o'zgaruvchanlik, foydalanish chastotasi va individual idrok etish kabilar evfemizmni siyosiy xalollik, jinoyatdan xoli va dezinformatsiya kabi hodisalardan farqlashni murakkab-lashtiradi va disfemizm - slanglar, jargonlar, vulgarizmlar va

shu kabi boshqa hodisalardan funksional yondashuv orqali farqlash mumkin.

Katseving fikricha, bu hodisalarning salbiy yoki ijobiy pragmatik ta'sir darajasi yoki neytrallashgan darajasini aniqlash orqali salbiy ma'noga ega bo'lgan -slang, jargon, argon, vulgar so'zlardan farqlash mumkin [2].

Masalan: the little house, aunt's closet Vs toilet; to put to sleep vs to kill; to step into one's last bus, go for Burton, to go West vs to die; curtains - death; Charley, to be for the birds vs stupid.

Ijtimoiy-siyosiy voqealarni yoritishda evfemizm va disfemizmlardan foydalanishning keng imkoniyatlarini xabarlar (xronologik eshittirish), mavzuli (har qanday joydan efiga uzatiladigan) va situatsion (rejasiz, siyosiy jarayonlarni yoritish) kabi gazeta janrlarida kuzatish mumkin. Siyosiy reportaj jarayonining o'ziga xos xususiyatlari sifatida "mavjudlik effekti", voqea joyidan tez va yorqin yoritishda, ko'pincha voqealarni emotsional-ekspressiv yoritishda evfemizm va disfemizmlardan foydalanish eng samarali vosita sanaladi. Evfemizm va disfemizmlarning pragmatik belgilari sifatida reportaj jarayonida voqeani salbiy yoki ijobiy baholash va jurnalistning hissiyotlari sezilarli bo'ladi; jurnalist tomonidan muayyan muloqot strategiyalarini amalga oshirish uchun tilning bunday nutq hodisalaridan foydalaniladi.

Siyosiy materiallar tahlili jarayonida biz bu materiallar tematik guruhlarini quyidagilarga bo'ldik:

1) war, 2) emigration, 3) crime va 4) discrimination

Evfemizmlar va disfemizmlar umumiy "urush" makromavzusiga birlashtirildi va u orqali

1) warfare va 2) war result, kabi kichik mavzular doirasi aniqlanadi, xuddi shunday 1) weapon, 2) bombing, 3) terrorist, 4) mockery tor doiralari ham o'rganiladi. Xuddi shu tartibda "Emigratsiya" makromavzusi 1) refugee, 2) immigration service tor doiradagi mavzularini o'z ichiga oladi.

"Jinoyatlar" tematik guruhi makromavzu bo'lib, 1) "crimes v State", 2) "punishment" kichik mavzular doirasida 1) "participator", 2) "action", 3) "place" xususiy mavzular o'rganiladi. Har bir mikrotemaning evfemizmlari va disfemizmlari asosiy makromavzu "jinoyatlar" bilan birlashtirilgan mikromavzular bilan bosqichma-bosqich ierarxik aloqalarni hosil qiladi.

Faktik materiallar tahlili shuni ko'rsatdiki, "discrimination" makromavzusining yagona lug'ati evfemizmlar bo'lib, ular 3 turga bo'lingan holda tahlil qilingan: a) race; b) economic; c) age.

Shu tariqa, bu mavzular doirasida qo'llanilgan evfemizm va disfemizmlarni tahlil qilish mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, evfemizmlar bir guruhdan ikkinchisiga o'tishi mumkin, boshqasi, o'z ma'no doirasini salbiy ma'noga o'zgartirib, disfemiyaga aylanadi. Masalan, detention centre so'z birikmasi- 'a place where young people who have done something illegal are kept, because they are too young to go to prison' "crimes" makromavzusi ichidagi "place" mikromavzusiga qarashli evfemizm bo'lib, bir vaqtning o'zida "emigration" makromavzusi ichidagi "reception centre" mikromavzusiga tegishli disfemizm hamdir.

Yana bir misolni ko'rib chiqsak, "doublespeak" evfemizm doirasi ingliz tilida ma'lum hodisalarning turli jurnalistlar tomonidan muntazam ravishda qayta takrorlangani va bu masalalarning "siyqasi chiqqan"ligini ifodalash uchun ishlatiladi, masalan: casualty, detainee, abuse, asylum seeker,

confrontation, operation, conflict, campaign, friendly fire va boshqalar[10]. One of the first combat casualties: U.S. Marines leave St. Margaret Mary Catholic Church with the coffin of fellow marine Lance Cpl. Jose Gutierrez on Monday in Lomita, Calif [USA Today, 10, 04, 2003]; The BBC programme will tonight show officers verbally abusing vulnerable detainees while others boast of abuse techniques they used on failed asylum seekers [Mirror, 3.02.2005]. Bu evfemizmlarni idrok etishda mexanik reaksiya sodir bo'layotgan narsaning mohiyatidan chalg'itadi, Avtomatlashtirish, "ko'rish" idrokning tabiati yumshatuvchi ta'sirni kuchaytiradi va zo'ravonlikni idrok etishni kamaytiradi.

Xulosa. Evfemizm va disfemizmlarning siyosiy matnlardan olingan tahlillari natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Disfemizm va evfemizmlarning shakllanishi turli xil usullar (semantik ma'no kengayishi va ma'noviy kontrast, antifraz, metafora, metonimiya, turdan turga va jinsdan tipga o'tish va boshqalar) yordamida sodir bo'ladi. Shu bilan birga, ularning o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud, masalan, disfemizmlarni shakllantirishda mubolag'adan foydalanish mumkin. Ayrim shakllanish usullari faqat evfemizmlarga xosdir (masalan, litotalar va antonomastik ko'chirish, paronimik almashtirish, qisqartirish, tabu so'zlarning deformatsiyasi va boshqalar).

Evfemizm va disfemizmlar turli tizimli munosabatlarda sodir bo'ladi: a) sinonimik, leksik dominantlar, meliorativ va pastorativ birliklar o'rtasidagi ekvivalentlik asosida va "evfemizm – evfemizm", "disfemizm – disfemizm" qarama-qarshiliklarida.

Evfemizmlar va disfemizmlar o'xshash tematik guruhlarini tashkil qiladi, ular doirasida tematik kichik guruhlar ajratiladi, ular tematik guruhlar tarkibidagi ichki mavzular va mikromavzular bilan, shuningdek, LSG (leksik-semantik guruh) mavjudligini belgilaydigan turli tematik guruhlar ichida qismli nutqiy mansubligi bilan belgilanadi.. Evfemizmlar va disfemizmlar bir mavzu guruhidan ikkinchisiga ko'chishi mumkin. Aksariyat mavzuli guruhlar ham evfemizmlar, ham disfemizmlar bilan ifodalanadi, ularning ba'zilar faqat bir turdagi birliklar bilan ifodalanadi, bu esa bunday birliklarning denotativ ma'nosi bilan bog'liq.

Siyosiy soha matnlarda evfemizm va disfemizmlarning pragmatik maqsadi - bu haqiqiy fakt to'g'risidagi ma'lumotni o'zgartirish, bezash yoki yashirish, biror narsa yoki kimdir haqida ijobiy ma'no ifodalash yoki aksincha, ma'lumotni qabul qiluvchiga ma'lumot uzatuvchining salbiy ta'sir ko'rsatishidir. "Ma'noviy pardalash" funktsiyasi bilan bir qatorda biz evfemizm va disfemizmlarning boshqa funktsiyalarini ajratib ko'rsatamiz: bularga ta'sir o'tkazish, urg'u berish, o'zini himoya qilish yoki birovni obro'sizlantirish kabilar kirib, ular siyosiy nutq strategiyalariga xos bo'lgan xususiyatlar orqali amalga oshiriladi. Bundan tashqari, yumshatish va o'zini himoya qilish funktsiyalari o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda faqat evfemizmlar tomonidan amalga oshiriladi.

Evfemizm va disfemizmlarning pragmatik ma'nosi tarkibiy birliklardagi sintagmatik bog'lanishlar, ikkilamchi nominatsiya uchun asos bo'lib xizmat qilgan asl birlikning differensial yoki potentsial semalaridan birini neytrallash yoki yumshatish orqali shakllanadi.

ADABIYOTLAR

1. Бушуева, Т.С. Прагматический аспект эвфемизмов и дисфемизмов в современном английском языке: автореф. дис. . канд. филол. Наук / Бушуева Татьяна Сергеевна; Смоленский гос. ун-т. -Смоленск, 2005. 24 с.
2. Кацев, А.М. Эвфемизмы и просторечие. Семантический аспект / А. М. Кацев // Актуальные проблемы семасиологии. Л., 1991. - С. 75 -83.
3. Кацев, А.М. Языковой табу и Эвфемия. Учебное пособие к спецкурсу / А. М. Кацев. Ленинград: Мин-во просвещ. РСФСР, Ленинград. Гос. пед. ин-т им. А. И. Герцена, 1988. - 80 с.

4. Крысин, Л.П. Иноязычные слова в современном русском литературном языке / Л. П. Крысин. М.: Наука, 1968. - 206 с.
5. Крысин, Л.П. Социоллингвистические аспекты изучения современного русского языка / Л. П. Крысин; ответ, ред. Ю. Д. Дешериев; АН СССР, Ин-т языкознания. М.: Наука, 1989. - 186 с.
6. Ларин, Б.А. Об эвфемизмах / Б. А. Ларин // Проблемы языкознания. Л., 1961.-С. 113-130.
7. Ларин, Б.А. Об эвфемизмах / Б. А. Ларин // История русского языка и общее языкознание. М., 1977. - С. 101-114.
8. Павлова, Е.К. Эвфемизмы как существенный элемент речевой коммуникации: (опыт прагматического анализа эвфемизмов в языке политики США); Сб. науч. тр. Московского государственного лингвистического ун-та. М., 2001. - № 452. - С. 76 - 86.
9. Павлова, Е.К. Языковая преемственность в процессе эвфемизации политических реалий США // Вестник Московского университета. Сер. 19, Лингвистика и межкультурная коммуникация. М., 2000.-№3.-С. 17-25.
10. <http://en.wikipedia.org/wiki/Doublespeak>